



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO’MINOVICH**
O‘zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliq
intizomini ta’minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O’G’LI**
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to’qnashuvining
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O’G’LI**
Sun’iy intellektni ta’lim olish jarayoniga tatbiq
etishning ayrim jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**
Национальные правовые аспекты реализации
функций государства при создании и развитии
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**
Practices of the advertisement legislation of the
Republic of Uzbekistan

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./CCVT4221>
UDC: 343.1(045)(575.1)

BEZORILIK: JINOIY-HUQUQIY KVALIFIKATSION MUAMMOLAR

Mirzaraimov Sardor Taxirovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0003-39-53-3800
e-mail: MirzaraimovSardor0220@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda bezorilik jinoyatlari bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazishda uchrayotgan kvalifikatsion muammolar, isbotlash jarayonining o'ziga xos jihatlari va mazkur masalalarni huquqiy tartibga solish jihatlari, jabrlanuvchi shaxsi, uning huquqlari va mavzuga doir boshqa masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada bezorilik jinoyatlarini mayda bezorilik huquqbuzarligidan farqlovchi kvalifikatsion chegarasi, bezorilik hamda mayda bezorilikning dispozitsion sharhi yoritib berilgan. Bundan tashqari, maqolada bezorilik jinoyati va mayda bezorilik huquqbuzarligi dispozitsiyasida keltirilgan noaniq jummalarni bugungi kundagi disreksion talqin etilish holatlari amaliy misollar bilan yoritilgan. Shu bilan birga, bezorilik jinoyati bo'yicha "Jamoat joyi" tushunchasining qonunlarda yakdil sharhi berilmaganligi tanqid qilinib, ushbu jumlagi huquqiy ta'rif ishlab chiqilgan. Bunda jamoat joyi tasnifi ham keltirilib, qonunchilikda jamoat joyi hisoblanmagan joylarning qat'iy ro'yxati berilishi lozimligi isbotlangan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llangan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan, buning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bezorilik, mayda bezorilik, jamoat joyi, kvalifikatsiya, huquqbuzarlik, jinoyat, kvalifikatsion chegara, kibermakondagi bezorilik, virtual bezorilik.

ХУЛИГАНСТВО: УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ КВАЛИФИКАЦИИ

Мирзараимов Сардор Тахирович,
самостоятельный соискатель Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье исследуются квалификационные проблемы, с которыми сегодня сталкиваются органы при проведении дознания и предварительного расследования по уголовным преступлениям, специфические аспекты процесса доказывания и правового регулирования, личность потерпевшего, его права и другие вопросы, касающиеся предмета. В статье также рассматривается квалификационный порог, который отличает преступления, связанные с хулиганством, от правонарушений, связанных с мелким хулиганством, а также диспозиционный комментарий к мелкому хулиганству. Кроме того, в статье на практических примерах освещаются сегодняшние случаи дискриминационного толкования двусмысленных фраз, применяемых в диспозиции о преступлениях, связанной с хулиганством и мелким хулиганством. В то же время критикуется отсутствие в законодательстве единого понимания понятия «общественное место» в отношении преступления хулиганства, поэтому было разработано юридическое определение этого понятия. Также приводится классификация

общественных мест и доказывается, что законодательством должно быть точно определены места, не являющиеся общественными. В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В ходе исследования был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовный кодекс Республики Узбекистан и другие законодательные и подзаконные акты.

Ключевые слова: хулиганство, мелкое хулиганство, общественное место, квалификация, правонарушение, преступление, граница квалификации, хулиганство в киберпространстве, виртуальное хулиганство.

HOOLOGANISM: CRIMINAL LAW QUALIFICATION PROBLEMS

Mirzaraimov Sardor Taxirovich,

Independent researcher at the University
of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article examines the qualification problems that are faced today during the investigation and preliminary investigation of criminal offenses, specific aspects of the proof process and aspects of legal regulation of these issues, the identity of the victim, his rights, and other issues related to the subject. The article also discusses the qualification threshold, which distinguishes crimes related to hooliganism from offenses related to petty hooliganism, as well as a dispositional comment on petty hooliganism. In addition, the article highlights the current cases of discriminatory interpretation of ambiguous sentences presented in the disposition of a crime related to hooliganism and a crime related to petty hooliganism using practical examples. At the same time, the lack of a unanimous understanding in the legislation of the concept of “public place” in relation to the crime of hooliganism was criticized, and a legal definition of this proposal was developed. It also provides a classification of public places and proves that legislation should strictly list places that are not considered public places. The research used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, and comparative legal analysis. During the research, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative and subordinate acts.

Keywords: hooliganism, petty hooliganism, public place, qualification, offense, crime, boundary of qualification, hooliganism in cyberspace, virtual hooliganism.

Kirish

Jahonda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish, jumladan, tergovga qadar tekshiruv o'tkazish, dalillarni aniqlash va to'plashda zamonaviy texnologiyalar, isbotlashning yangi taktik usul va imkoniyatlaridan samarali foydalanish, bezorilik bilan bog'liq jinoyat ishlarini tergov qilish usullarini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada bezorilik jinoyatlarining kriminalistik

tavsifini shakllantirish va takomillashtirish, jinoyat sodir etgan shaxslarning aybini isbotlash imkoniyatlarini kengaytirish, jabrlanuvchilarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq milliy qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotida uchrayotgan nazariy va amaliy muammolarning yechimini topish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “... ayni vaqtda hozirgi murakkab zamon tinch oyoq hayotimizni asrash va mustahkamlash,

xalqimizning kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasini yanada dolzarb qilib qo'y-moqda".

Material va metodlar

Darhaqiqat yurtboshimiz tomonidan mamlakatimizda sud-huquq sohasidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash masalalarini rivojlantirish zarurati ushbu islohotlarning alohida muhim qismini tashkil etmoqda.

Bezorilik jinoyatlarini tergov qilishda avvalo bezorilik qilmishini jinoiy-huquqiy kvalifikatsiya qilishni talab etadi va mazkur normaning tahlili mavzuni yoritishda birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishida mazkur bezorilik jinoyatini mayda bezorilik huquqbuzarligidan farqlash bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar, normativ tushunmovchiliklar va isbotlov hamda jinoyat faktini asoslashda inobatga olinishi lozim bo'lgan qoidalar tahlil qilingan, shu bilan birga, qiyo-siy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Bugungi kunda qonunlarga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar norma ijodkorligi hamda uning qoidalarini qayta ko'rib chiqish lozimligini ko'rsatmoqda. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlardagi noaniqliklar va turlicha talqin qilinishi mumkin bo'lgan jum-lalarning qo'llanishi, huquqni qo'llash amali-yotidagi turli xil talqinlarning sababi bo'lsa, boshqa tomondan shaxslarning huquq va manfaatlariga putur yetkazuvchi omil sifatida salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ayni disreksion omillar yoki normativ no-aniqliklarni o'rganilayotgan mavzu doirasida tahlil etish tadqiqot mavzusi oldidagi vazifalardan sanalganligi bois bu bo'yicha atrofli-cha to'xtalib o'tamiz.

Dastlab ma'muriy javobgarlikka sabab bo'luvchi mayda bezorilikning O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risi-dagi kodeksida nazarda tutilgan dispozitsion

ta'rifini sharhlash lozim. Xususan, MJtKning 183-moddasida "Mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatsiz so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning oso-yishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik" deb belgilangan.

Dispozitsiyaning mazmunidan ma'lum bo'ladiki, jamiyatda mayda bezorilik huquq-buzarligi quyidagi elementlardan iborat harakatda ifodalangan belgilarning bo'lishini talab etadi:

- uyatsiz so'zlar bilan so'kinish;
- fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish;
- jamoat tartibini va fuqarolarning oso-yishtaligini buzuvchi xatti-harakatlar.

Shuningdek, mazkur harakatlar aynan jamoat joylarida sodir etilishi va jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik-da ifodalangan qasd bilan kechishi lozimligini bildirmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan harakatlarning hatto bittasini jamoat joyida yuqorida keltirilgan qasd bilan sodir etilishi mayda bezorilik huquqbuzarligining tarkibini keltirib chiqaradi.

J.A. Djavkashevning fikriga ko'ra, "Uyatsiz so'zlar bilan so'kinish – shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan tahqirlash shaklida namoyon bo'lishi mumkin" [1, 535–541-b.] Ushbu fikrlarga qo'shilamiz, jumladan, shaxsning uyatsiz so'zlarni ishlatishi biror-bir shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlashi lozim, ya'ni harakat qarati-layotgan obyekt aynan o'zga shaxsning sha'ni va qadr-qimmati bo'lishi va bunda ishlatilgan so'z ham o'z o'rnida haqoratli bo'lishni talab etadi.

M.X. Rustambayevga ko'ra, uyatsiz so'zlar bilan so'kinish, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash turli xatti-harakatlarda, masalan: beandisha-lik bilan so'kish, turli ibora va mulohazalarni

yozish, yuziga tupurish, jabrlanuvchiga nisbatan behayo xatti-harakatlarni va imo-ishoralarni qilishda ifodalanishi mumkin [2,154-155-b.]

Mazkur fikrlarni qo'llagan holda aytish mumkinki, jamoat joylarida mazkur harakatning amalga oshirilishi aynan aniq shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlashga qaratilgan qasd bilan kechishi yoki kechmasligidan qat'i nazar mayda bezorilik zaruriy tarkibi bilan namoyon bo'ladi.

A. Abdullayevning fikriga ko'ra, "Haqorat qilish, insonning hurmati va qadr-qimmatini qasddan yerga urishdir. Qadr-qimmatni yerga urishning o'zi haqorat qilishda ayblashga asos bo'la oladi, u aniq bir shaxsga qaratilgan bo'lishi kerak. Agar haqorat qilish bir aniq shaxsga qaratilmagan bo'lsa, mayda bezorilik deb ma'muriy huquqbuzarlik sifatida baholanadi" [3].

Ushbu fikrlarga qo'shilamiz, zero aynan haqoratli so'zning aniq shaxsga qaratilishi bu – shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish sifatida baholanishi lozim, biroq olimning fikrlarida mayda bezorilik sifatida jamoat joyida yoki ommaning oldida ushbu haqoratli so'zning ishlatilishi huquqbuzarlikka sabab bo'lishi borasidagi kamchilikni to'ldirish o'rinli, deb bilamiz.

S. Turemuratovning fikricha, "Ayrim holdlarda so'kish haqorat deb topilishi mumkin. Ammo aynan kimnidir emas, g'azab, stress holatida yoki umuman boshqacha vaziyatda hech kimga qaratmasdan uyatsiz so'zlarni ishlatishi mumkin. Agar ushbu harakat jamoat joylarida, ya'ni odamlar to'planadigan yoki harakatlanadigan joylarda sodir etilsa, bu jamoat joyida uyatsiz so'zlar bilan so'kinish deb topilishi mumkin va javobgarlikka sabab bo'ladi" [4].

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, jamoat joylarida uyatsiz so'zlar bilan so'kinish aynan biror-bir shaxs qadr-qimmatining kamsitilishiga qaratilishi shart emas va shu jihatdan dispozitsiyaning ma'nosiga to'g'ri tatbiq etilishi nuqtayi nazardan ushbu fikrlar asosli,

degan xulosaga kelamiz. Ya'ni haqorat qilish bu shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish hisoblanadi. Masalan, kimdir boshqa birovning shaxsini kamsitsa, uni uyatsiz so'zlar bilan so'ksa, sha'nini yerga ursa bu haqorat qilish, deb topiladi va alohida javobgarlikka sabab bo'ladi. Mayda bezorilikning aynan tarkibi xoh u o'zga shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini bo'lsin, xoh umuman hech bir shaxsga qaratilmasin basharti jamoat joyida bunday haqoratli, uyatsiz so'zlar bilan so'kinsa, ushbu huquqbuzarlikning tarkibi kelib chiqadi.

Tahlil etilayotgan mayda bezorilik huquqbuzarligining keyingi elementi bu – fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hisoblanadi.

J.A. Djavkashev "Fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish – shaxsni hol-joniga qo'ymaslik, unga xiralik qilishda namoyon bo'lishi mumkin" [1, 535–541-b.] deya ta'rif bergan bo'lsa, I.M. G'ofurjonov esa jumlaning ma'nosini izohli talqin qilib, unga "o'zganing qadr-qimmatini mensimasdan hol-joniga qo'ymay surkanaverish va xiralik qilishdan iborat harakat" deya ta'kidlaydi [5, 291–297-b.]

Yuqoridagi fikrlarning har ikkisini ham inobatga olish mumkin, biroq qonunchilikka kiritilgan o'zgartishlar so'ng aynan haqoratomuz shilqimlik bilan shahvoniy shilqimlikni aniq farqlash lozim, aks holda qilmish butunlay boshqa huquqbuzarlik tarkibini tashkil etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi MjtKning 41¹-moddasiga ko'ra, "Shahvoniy shilqimlik qilish, ya'ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlaydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etish" deya qayd etilgan.

Demak, jamoat joylarida fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilishda huquqbu-

zarlik obyektni jamoat tartibi bo'lsa, shahvoniy shilqimlik qilishning obyekti sifatida o'zganing sha'ni va qadr-qimmati tashkil etadi. Aynan ushbu jihat huquqbuzarliklarni farqlashning asosiy mezonini hisoblanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atlarida "shilqimlikka – surbetlik, xiralik qilib surkanish" deya izoh berilgan bo'lib, sulohlik degan so'z bilan sinonim sifatida ishlatilishi qayd etilgan 6, 547-b.].

Biroq shuni alohida qayd etish lozimki, shaxsning shahvoniy shilqimlik harakatlari aksariyat hollarda jamoat joylarida sodir etilishini inobatga olsak, bir vaqtning o'zida ikkita huquqbuzarlikning, ya'ni shahvoniy shilqimlik qilish (MJtK 41¹-m) va mayda bezorilik (MJtK 183-m)larning tarkibini tashkil etadi. Buni malakalashda bugungi kunda huquqni qo'llovchilar huquqbuzarliklar majmui sifatida baholashlari talab etiladi.

Sharhlanayotgan mayda bezorilikning keyingi elementi sifatida – fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik ekanligini inobatga olsak, dispozitsiyadagi mavhumlikni kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Jumladan, jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlar sirasiga aynan qaysi harakatlar kirishi nazarda tutilganligi biroz mavhum, garchi ushbu harakatlarning aynan qasd yo'naltirilgan obyekti, ya'ni jamoat tartibi va fuqarolarning osoyishtaligi belgilanganligi, shuningdek, uni sodir etish usuli "jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik"da ifodalanishi qayd etilgan bo'lsa-da, uning aynan nimada ifodalanishi "shu kabi boshqa xatti-harakatlar" jumlasiga bilan belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, mazkur oqibatlarini keltirib chiqarish mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatni nazarda tutadi.

Ba'zi olimlar jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlarni alohida sharhlash lozimligi borasidagi fikrlarni bildirib, "jamoat tarti-

bini buzuvchi xatti-harakatlar sodir etish" va "fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlar sodir etish" kabi ikki elementga bo'lishni yoqlaydilar [7, 47–49-b.].

Bizningcha, ushbu fikrlarga qo'shilish imkonsiz, sababi bunda normaning ikki harakatni bir-biriga teng bog'lovchi "va" so'zi ishlatilayotganligi, ya'ni teng bog'lovchi har ikki oqibat bir harakat natijasida kelib chiqishi lozimligini ifodalaydi, shuningdek, fuqarolarning osoyishtaligining buzilishi bir vaqtda jamoat tartibini buzish bilan kechishi, ushbu harakatlar bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lgan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

E'tibor qaratish lozim bo'lgan jihat sifatida aytish mumkinki, sharhlangan normaning ayni elementlarigina, ma'muriy huquqbuzarlikning ushbu turi bilan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shunday bo'lsa-da, bu boradagi huquqni qo'llash amaliyoti normani subyektiv sharhlash kabi salbiy holatlarga yo'l qo'ymoqda.

Xususan, 2023-yilning 5-iyun kuni Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek tumanida fuqaro M.Y. aholi murojaatini o'rganayotgan "MY5" telekanali muxbiriga nisbatan "Mazangni qochiraman hozir" deb aytganligi uchun, Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2023-yilning 5-iyundagi qaroriga ko'ra MJtKning 183-moddasida (mayda bezorilik) nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir qilgan deb topilib, unga 5 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlangan [8].

Keltirilgan holatda fuqaro M.Y.ning jurnalistga nisbatan ishlatgan ushbu tazyiqi haqorat sifatida baholangan va jamoat tartibini mensimaslikda ifodalanib, ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Bizningcha, bunga quyida qayd etilgan bir qancha omillar sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son Qonunining 13-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarini

ning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda disreksion vakolatlarining kengligi va noaniq hamda asossiz havolalarning qo'llanishi vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar sifatida baholanishi belgilab qo'yilgan.

Xususan, qonun ijodkorligida ayni shunday noaniq va asossiz jumla (havolalar)ning qo'llanishi, bundan tashqari, huquqiy normaning chegarasini belgilash imkonini bermaydigan, xususan, “va boshqalar”, “va hokazo” kabi normalarning qo'llanishi huquqni qo'llovchilarga asossiz ravishda ko'rib chiqish doirasining kengaytirish imkonini beradi. Shu sababdan noaniq va asossiz havolalar keltirilmasligi hamda normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish tegishli davlat organlarining vakolat doirasida amalga oshirilishi zarur.

Misol uchun, normativ-huquqiy hujjatda “nazorat tadbiri rejali tekshirish davomida, ma'lum bir hududda (mintaqada) zararlanish o'chog'i aniqlanganda, mahsulot import qilinganda va boshqa holatlarda amalga oshiriladi” deya belgilangan bo'lsa, muammo – nazorat tadbiri amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holatlarning aniq chegarasi belgilab berilmaganligi, xususan, “va boshqa holatlarda” iborasi qo'llanishi oqibatida tekshiruvchida asossiz ravishda, tekshirish obyekti yoki predmeti doirasiga taalluqli bo'lmagan nazorat-tekshiruvini amalga oshirish bilan bog'liq diskresion vakolatlar vujudga keladi.

Demak, qonunchilik va norma ijodkorligida mavhum va turli xilda talqin etilishi mumkin bo'lgan so'zlar hamda jumalardan foydalanish mumkin emas.

Shu bois bezorilik bilan bog'liq barcha huquqbuzarlik turlarida, xususan, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo'luvchi bezorilikning dispozitsion matnlarida, bizningcha, quyidagi mavhumliklar va disreksion holatlarga sabab bo'luvchi matnlar mavjud.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasida bayon etilgan “jamoat

joylarida”, “shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan” jumalari;

O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi birinchi qismida qayd etilgan “jamiyatda yurish-turish qoidalarini” jumlasini;

Mazkur moddaning ikkinchi qismi “g” bandidagi “umume'tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o'taketgan behayollik” jumalari;

Ushbu normaning uchinchi qismi “g” bandida nazarda tutilgan “qarshilik ko'rsatib” jumalari huquqni qo'llash amaliyotida bugungi kunda turli xilda talqin etilishiga sabab bo'lmoqda.

Chunonchi, Toshkent metrosida sumkasida bomba borligini aytgan qiz hibsga olingani haqidagi xabarlar tarqaldi. IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamentining ma'lum qilishicha, avtomatik o'tkazish punktida to'xtatilib, sumkasi ko'zdan kechirilgan qiz 19 yoshda bo'lgan. U sumkasida bomba borligini aytgach, Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari zudlik bilan yaqin atrofdagi hududni o'rab olgan va voqea haqida navbatchilik bo'limiga xabar berishgan [9].

Jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudining 2022-yil 24-oktabr kungi ma'muriy qaroriga asosan, S.X. (qiz) MJtKning 183-, 199-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan deb topilib, unga uzil-kesil 5 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlangan [10].

Sudning qaroriga ko'ra, S.X. 2022-yil 22-oktabr kuni Toshkent metropolitenining “Alisher Navoiy” bekatida, metropolitenda xizmat qiluvchi ichki ishlar organlari xodimlariga sumkasida “bomba” borligi haqida yolg'on xabar bergan. Shu asnod metro bekatida jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimadan mayda bezorilik sodir qilib, ichki ishlar organi xodimlari va maxsus xizmat xodimlarini qasddan aldab chaqirgan.

MJtKning 199-moddasiga ko'ra, ichki ishlar organi, yong'inga qarshi xizmat, tibbiy tez yordam va boshqa maxsus xizmatlarni qasddan aldab chaqirganlik – bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ma'lum bo'lishicha, 2022-yilda Toshkent metropoliten obyektlarida jami 4 ta shu kabi holatlar aniqlangan, bittasida voyaga yetmagan shaxs bo'lganligi sababli ota-onasiga nisbatan MJtKning 47-moddasiga asosan, qolgan 3 ta holatda ham MJtKning 199-moddasiga asosan hujjatlar rasmiylashtirilib, tuman IIB-ga topshirilgan [11].

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, birinchidan, bir xil harakat uchun ayrim holatlarda, MJtKning 199-moddasi bilan, S.X.ning harakati esa MJtKning 199-moddasidan tashqari 183-moddasi bilan ham malakalangan. Ikkinchidan, sud S.X.ning aynan qaysi harakati MJtKning 183-moddasi bilan baholanganligini aniq asoslar bilan o'z xulosasini asoslantirmagan.

Uchinchidan, S.X.ning ichki ishlar organi xodimlari va maxsus xizmat xodimlarini qasddan aldab chaqirganligi haqidagi sudning xulosasi ham ishning haqiqiy holatlariga to'g'ri kelmaydi. Bunday holda asosli va haqli savol tug'iladi. Nima sababdan bir xil holatda ikki xil ma'muriy amaliyot joriy qilindi?

Shu tufayli mazkur tushunchalarni huquqiy sharhlash, huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish va natijasiga muvofiq normativ-huquqiy ta'riflar shakllantirish hamda tayanch tushunchalar sifatida normani o'ziga yoki atamalarining huquqiy ma'nosi aks etuvchi bo'limga mazkur ta'riflarni kiritish maqsadga muvofiq.

Dastlab mayda bezorilikda nazarda tutilgan "jamoat joyi" tushunchasiga to'xtalib o'tish lozim, sababi mazkur jumlaning aniq ifodalanishi nafaqat mayda bezorilik huquqbuzarligi, balki jinoiy bezorilik yoxud boshqa ko'plab huquqbuzarliklarning (edemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish (54-m.), jamoat joylarida tamaki mahsu-

lotini iste'mol qilish (56¹-m.), fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishi (184¹-m.), jamoat joylarida shaxsini identifikatsiya qilish imkonini bermaydigan ko'rinishda bo'lish (184⁴-m) sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni olib yurish (185²-m.), jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish (187-m), tilanchilik qilish (188³-m.), bayroqlar va vimpellardan g'ayriqonuniy foydalanish, plakatlarni, emblemalar va ramzlarni tayyorlash, tarqatish yoki taqib yurish (203-m.) hamda yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish (211-m.)) to'g'ri baholanishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

S. Abdullayevning fikriga ko'ra, "Biror-bir jamiyatda muqim bir hudud jamoat joyi deb belgilanmagan va bu – tabiiy, chunki hozirgina kimsasiz turgan bekat hademay, yo'lovchilar to'plangan palla izdihom tusini oladi – jamoat joyiga aylanadi. Shu asno shu maqomga xos bir qator tartib-qoidalar ham vujudga keladi. Uni kimdir joriy qilmaydi, u odamlar olgan tarbiya o'zanida o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Rasman joriy qilinmagan, biror-bir huquqiy hujjatda o'z aksini topmagan bu tartib-qoidalarga rioya etish tartibi ham bevosita amalga oshadi – bu jarayonni ham kimdir boshqarmaydi" [12] deya ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlarga qisman qo'shilish mumkin, haqiqatan ham mamlakatimizda biror-bir qonun hujjatlarida "jamoat joyi" tushunchasiga aniq ta'rif berilmagan, bu haqda biror ta'rif shakllantirilmagan, jumladan, omma yurishi uchun mo'ljallangan hududda biror kimsaning mavjud emasligi unda fuqarolarning osoyishtaligini buzilganligiga dalolat qiluvchi asos keltirib bo'lmasligi bilan kechadi.

Z. Oxunov fikriga ko'ra ham "qonunchiligimizda "jamoat joyi" tushunchasining aniq, yagona ta'rifi mavjud emasligini keltirib, muayyan huquqbuzarlikning jamoat joyida sodir etilgan, deb hisoblash uchun, ushbu huquqbuzarlik sodir etilgan joyda jamoaning, ya'ni odamlarning mavjudligini inobat-

ga olish lozim bo'lishi, chunki huquqbuzarlik sodir etilgan joyda odamlar guruhining yo'qligi ushbu joyning "jamoatchilik" funksiyasini vaqtinchalik yo'qotganligini anglatadi" [13, 185–188-b.] deya ta'kidlaydi.

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda ta'kidlash lozimki, huquqbuzarlik sodir etilgan joyda hech bo'lmaganda bir nafar shaxsning bo'lmashligi undagi jamoatchilik funksiyasining yo'qotilishiga olib keladi.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 56¹-moddasida o'zgarlar sog'lig'iga tajovuz qiluvchi huquqbuzarlik, ya'ni jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish keltirilgan bo'lib, unga ko'ra ish joylarida, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylarda, shu jumladan, avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalarida va boshqa jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Yuqorida keltirilgan ish joylari, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida shaxs tamaki iste'mol qilayotgan vaqtda odamlarning mavjud bo'lmashligi bevosita o'zgarlar sog'lig'iga tajovuzni ham keltirib chiqarmaydi. Bu esa ushbu qilmishni huquqbuzarlik deb topmasligimiz uchun asos bo'ladi.

Biroq milliy qonun hujjatlarimizda ham "jamoat joy"lariga taalluqli tushunchalarni mutlaq keltirilmagan, deb bo'lmaydi.

Xususan, yuqorida keltirilgan O'zbekiston Respublikasi MJtKning 56¹-moddasi yoki 187-moddasida jamoat joyi sifatida sanab o'tilgan ish joylari, ko'chalar, stadionlar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, jamoat transportining barcha turlari qayd etilgan bo'lsa, 188³-moddasida "aeroportlar, vokzallar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, bozorlar va savdo majmualari hududlari, shuningdek, ularga tutash hududlar, avtomototransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, ko'chalar, stadionlar, bekatlar, yo'llarning qatnov qismi, moddiy madaniy meros obyektlari joylash-

gan hududlar, jamoat transportining barcha turlari va boshqa jamoat joylari" qayd etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasida ish joylari, ko'chalar, stadionlar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, jamoat transportining barcha turlari, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalari, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylar, shu jumladan, avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalarini jamoat joylari sirasiga kiritilgan.

Shu bilan birga bir muncha vaqt oldin kuchda bo'lgan, biroq bugungi kunda o'z kuchini yo'qotgan O'zbekiston Respublikasi "Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida quyidagilar jamoat joylari sifatida belgilagan edi. Jumladan,

- statsionar savdo obyektlari, umumiy ovqatlanish korxonalari;

- kinoteatrlar, teatrlar, sirkalar, konsert, ko'rik va ko'rgazma zallari, ommaviy dam olish uchun mo'ljallangan boshqa yopiq inshootlar;

- klublar, diskotekalar, kompyuter zallari, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun jihozlangan xonalar, boshqa ko'ngilochar (bo'sh vaqt o'tkaziladigan) joylar;

- muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari, ma'ruzaxonalarda;

- mahalliy va uzoqqa qatnaydigan poezdlar, shahar atrofiga qatnaydigan poezdlarning vagonlari (shu jumladan, tam-burlari), daryo kemalari, shaharda, shahar atrofiga, shaharlararo va xalqaro qatnaydigan avtobuslar, taksilar, yo'nalishli taksilar hamda shahar elektr transporti, shuningdek, havokemalari;

- yerosti o'tish joylari, transport bekatlari va avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylari;

- aeroportlarning, temir yo'l, avtomobil vokzallarining va suv transporti bekatlarining binolari;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, xo‘jalik boshqaruvi organlarining, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning binolari;

– sog‘liqni saqlash tizimi muassasalari va tashkilotlari, ta‘lim muassasalari, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlari;

– ish joylari bo‘lgan xonalar;

– ko‘p kvartirali uylarning yo‘laklari, shuningdek, uylar oldi hududida joylashgan bolalar va sport maydonchalari; xiyobonlar, bog‘lar, ko‘chalar.

Bundan tashqari, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasida “jamoat joylarida, shu jumladan, ko‘chalarda, maydonlarda, istirohat bog‘larida, transport magistrallarida, vokzallarda, aeroportlarda, shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlashi” deya ta‘riflangan.

Biroq ushbu ro‘yxatlar qoida tariqasida kiritilmagan bo‘lib, ularning doirasi yanada kengayishi mumkinligini istisno etib bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, “jamoat joyi” tushunchasining qonunchilikka kiritilishi ushbu joylarda sodir etiladigan ma‘muriy huquqbuzarliklarni malakalashga oid muammolarning yechimi bo‘ladi, deb ayta olamiz.

Z. Oxunov ham jamoat joyi bilan bog‘liq qonunlarni tahlil qilib, O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 56¹-moddasini ikkinchi qism bilan to‘ldirishni taklif etib, bunda huquqbuzarlik sodir etilayotgan vaqtda huquqbuzar yoxud huquqbuzar hamda jabrlanuvchidan tashqari ikki yoki undan ortiq shaxslar mavjud bo‘lgan joy jamoat joyi hisoblanishi borasidagi qoidani kiritishni taklif etgan [13, 185–188-b.]

Z. Oxunovning fikrlariga qo‘shilishning imkoni yo‘q, ushbu fikrlarda aynan nima uchun jamoat joyida huquqbuzar yoxud huquqbuzar hamda jabrlanuvchidan tashqari ikki nafar yoki undan ortiq shaxs mavjud bo‘lishining zaruriy shart sifatida keltirilgan-

ligi mavhum. Shuningdek, ushbu taklif faqatgina MJtKning 56¹-moddasi uchun tatbiq etilishini inobatga olsak, “jamoat joyi” tushunchasi qolgan normalar uchun noaniqligicha qoladi.

Bizningcha, yuqorida keltirilgan taklif yuzasidan huquqbuzarlik sodir etilayotgan vaqtda huquqbuzar yoxud huquqbuzar hamda jabrlanuvchidan tashqari kamida bir nafar yoki undan ortiq shaxslar mavjud bo‘lgan joyni jamoat joyi hisoblashimiz mumkin bo‘ladi, sababi bunday joyda jamoatchilik funksiyasi namoyon bo‘ladi.

I.D. Bredixin [14, 85–89-b] va R.V. Sidorovlar jamoat joyini aholi uchun ochiqlik va foydalanish imkoniyati bilan ajralib turadigan ma‘lum bir hudud sifatida belgilashni taklif qiladilar va uni doimiy yoki vaqtincha bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydi [15, 26-b.]

Olimlarning fikrlariga qo‘shilish mumkin, biroq ushbu fikrlarda jamoat joyining faqatgina bir funksiyasi aks etmoqda xolos.

Matthias Bucheckerning fikricha, “Jamoat joylari deganda davlat va xususiy binolar, inshootlar yoki majmualardagi yopiq hududlar tushuniladi, ular keng jamoatchilikka ochiq (ular uchun foydalaniladi yoki foydalanish mumkin). Shuningdek, olim bir qator joylarni sanab, ularning ro‘yxatiga koridorlar, hojatxonalar, zinapoyalar, eskalatorlar, liftlar, vestibyullar, qabulxonalar, kutish xonalari, ichki xizmat ko‘rsatish liniyalari, kassalar, peshtaxtalar va boshqa to‘lov terminallari, sinflar yoki keng jamoatchilikka ochiq bo‘lgan binolar, avtobuslar yoki boshqa yopiq joylar boshqalarni ham kirishini ta‘kidlaydi [16, 44–46-b.]

Ushbu fikrlarda jamoat joylarining elementlaridan ko‘ra ko‘proq ularning ro‘yxati ustun ko‘rinish kasb etadi. Shu bois bu kabi ro‘yxatlar ko‘pligini inobatga olgan holda jumlagi ta‘rif berish nuqtayi nazardan olimning fikrlariga qo‘shilmaymiz.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “joy” so‘zi 13 o‘rinda ma‘no aks etishi sababli aynan, jamoat joyi bilan kelgan alohida so‘z birik-

masiga yaqin ma'nosiga e'tibor qaratsak, makon, manzil, yer-hudud, ish-harakat, jarayon o'rni bo'lsa, "Jamoat" so'zi asli arab tilidan o'zlashtirma bo'lib, birlashma, uyushma, guruh, xalq, xaloyiq, ko'pchilik, shuningdek, ko'pchilikka oid, ommaga qarashli degan ma'nolarni bildirishi bayon etilgan.

Bomba terrorizmiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konvensiyaning 1-moddasi 5-bandida jamoat joylariga ta'rif keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, "jamoat joylari" deganda doimiy, vaqtincha yoki vaqti-vaqti bilan aholi foydalanishi mumkin bo'lgan yoki omma uchun ochiq bo'lgan har qanday bino, yer, ko'cha, suv yo'li yoki boshqa joylarning qismlari tushuniladi va shu tariqa jamoatchilikka ochiq bo'lgan har qanday tijorat, biznes, madaniy, tarixiy, ta'lim, diniy, davlat, ko'ngilochar, dam olish yoki shunga o'xshash obyektlarni o'z ichiga oladi [17].

Xalqaro qonun hujjatlarida ham jamoat joylari elementlari, funksiyalari bilan bir qatorda ularning qisqa ro'yxati shakllanganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Samarqand viloyat sudining sudyasi O. Nabiyeovning fikricha "Jamoat joyi deganda barcha fuqarolarning to'siqlarsiz kirishlari, bo'lishlari mumkin bo'lgan, yoki fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan joydagi hududlar, xonalar, inshootlar tushuniladi"[18].

O. Zamanovning fikricha "qonun hujjatlarida aniq ta'rif va yagona yondashuv bo'lmaganligi sababli mutaxassislar bu borada munozara qilib keladilar, shu bois bu borada huquqni qo'llovchilar uchun ishonchli tayanch nuqta bo'lishi uchun jamoat joyi deganda to'siqsiz kirish (bo'lish) uchun ochiq bo'lgan joydagi, shuningdek, transport kommunikatsiyalarini tushunish"ni taklif etgan [19, 46-b.]

Bizningcha, jamoat joyiga berilgan har ikki muallifning ta'riflari ushbu ta'riflar ichida eng to'g'rilardan hisoblanadi, biroq ushbu ta'rifni alohida qonun hujjatida misol uchun ishlab chiqishi nazarda tutilgan O'zbekis-

ton Respublikasining "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunida yoki Oliy Sud Plenumi qarorida belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq. Sababi ushbu ta'rifning o'zi bilan "jamoat joyi"ga to'laqonli ta'rif berish mushkul, uning doimiy yoki vaqtincha, shuningdek, bir martalik tushadigan jamoat joylari sifatida ta'riflashga zarurat mavjudligi va bu to'laqonli bir moddani qamrab olishini inobatga olib, uni ushbu turdagi moddalarga qo'shimcha qism sifatida emas, aksincha, shu turdagi huquqbuzarliklarga birday taalluqli bo'lgan alohida qonun hujjatida qayd etib qo'yish lozim, degan fikrdamiz.

Shuningdek, jamoat joyi tushunchasini bir tomondan uni ma'lum bir hudud yoki joyga ommaning kirib borishi imkoniyati bilan ikkinchi tomondan unda jamoatchilik funksiyasi, ya'ni kamida ikki kishi bo'lishini nazarda tutadi. Binobarin, fuqaroning uyi jamoat joyi emas, balki boshqa shaxs ishtirokida shaxsning undagi har qanday harakati ommaviy deb ataladi. Xuddi shunday, yolg'iz holda sodir etilgan jamoat joyidagi huquqbuzarlikning obyekti sifatida jamoat tartibi hisobga olinish mumkin emas, degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqoridagilarga asosan, olimlarning fikrlarini hamda ma'noviy-mazmuniy, huquqiy jihatlarini inobatga olgan holda "jamoat joyi"ga quyidagi ta'rifni taklif etamiz. Xususan,

Jamoat joyi – to'siqsiz kirish (bo'lish) uchun ochiq bo'lgan yoxud fuqarolarning turli ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mo'ljallangan joydagi uchastkalar, binolar, xonalar, inshootlar, ularning qismlari, shuningdek, transport kommunikatsiyalari tushuniladi.

Shuningdek, jamoat joylarini to'rtga bo'lib tasnif etishni ilgari surgan olimlarning fikrlari diqqatga sazovor. Xususan, A. Xudoyberdiyev va I.Y. Iskandarovlar jamoat joylari doimiy, davriy, bir martalik va ko'chaga bo'lib tasniflash lozimligini keltiradilar [20, 16–21-b.]

Olimlarning fikrlari o'ziga xos, biroq ular-da jamoat joylarining tasnifi ayrim nuqtalari-

da takrorlanishi nuqtayi nazaridan qo'shil-maymiz. Shu bois jamoat joylariga quyida keltirilgan tasniflashni va ularni qonun hujjatlarida qayd qilishni lozim hisoblaymiz. Xususan:

doimiy tUSDagi – hududda fuqarolar-ning doimiy bo'lishi yoki doimiy bo'lish im-koniyati, muayyan vaqtda faoliyat yuritish rejimi belgilanmagani va fuqarolar doimiy yashaydigan obyektlarning mavjud bo'lishi bilan tasniflanadi. Bular transport magistral-lari, ko'chalar, turar joy dahalari, mahallalar, mavzalar, mikrorayonlar hududlari, aero-portlarning, temir yo'l, avtomobil vokzalla-rining va suv transporti bekatlarining bino-lari va h.k.;

vaqtincha tUSDagi – fuqarolarning vaqtin-cha bo'lishi yoki vaqtincha bo'lish imkoniyati, muayyan vaqtda faoliyat yuritish rejimi bel-gilangani va fuqarolar doimiy yashaydigan obyektlarning mavjud emasligi bilan tasnifla-nadi. Ularga xiyobonlar, maydonlar, madani-yat va istirohat bog'lari, savdo, ko'ngilochar, savdo-ko'ngilochar komplekslari va markaz-lari, gipermarketlar, supermarketlar, bozor-lar va fuqarolar ommaviy to'planadigan bosh-qa joylar va h.k. kiradi;

bir martalik tUSDagi – ommaviy jamoat, qishloq xo'jaligi ishlari yoki boshqa tadbirlar-ni, shu jumladan, omma yig'ilgan paytda tan-tanali tadbirlar, diniy marosimlar, ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar hamda bunday joylardagi alohida uchastkalari.

Shuningdek, qonun hujjatlarida qaysi joy-lar jamoat joylari hisoblanmasligini ham aniq bayon etish lozim, deb hisoblaymiz hamda ularni ro'yxatini quyidagicha keltirishni taklif etamiz:

– fuqarolarning qo'riqlanuvchi xususiy va shaxsiy yer uchastkalari;

– chet el elchixonalari, vakolatxonalari va qarorgohlariga tegishli yoki davlat tomoni-dan uzoq yillik shartnomaga asosan ijaraga berilgan yerlar va uchastkalar hududlari;

– fuqarolarning xususiy yoki shaxsiy xo-nadonlari va hovli joylari;

– fuqarolar tomonidan umumiy tartibda (sport, ko'ngilochar va boshqa) tadbirlar o't-kazishda foydalanish uchun jihozlanmagan yerto'la va chordoqlar, qavatlararo o'tish joy-lari, tomlar, zinapoyalar, liftlar, umumiy foy-dalanishdagi xonadonlar va boshqa shu kabi joylar;

– ma'lum davrlarda faoliyat ko'rsatmay-digan mavsumiy dam olish joylari, ya'ni klub-lar, teatrlar, ko'rgazma zallari, muzeylar, ku-tubxonalar, restoranlar, kafelar, oshxonalar, stadionlar, magazin va boshqa do'konlar (ish-lamagan vaqtlarda);

– ma'lum vaqtgacha, ya'ni yil, mavsum, hafta va kecha-kunduz davomida ish faoliyati to'xtatilgan (ta'mirlash ishlari olib borilayot-ganligi sababli) yoki fuqarolar uchun yopib qo'yilgan joylar: yotoqxona, pansionat, pro-filaktoriya, dam olish uylari, mehmonxonalar va boshqa shunga o'xshash joylar;

– qo'riqlanadigan obyektlar hududi (fuqa-rolarning erkin kirib-chiqishi taqiqlangan joylar);

– yo'nalishdagi yo'lovchi poyezdlarning ishlamayotgan tamburlari, kupelari, hojat-xonalari va brigada a'zolari uchun ajratilgan maxsus xonalar, yo'lovchi poyezdlari to'xta-maydigan temir yo'l bekatlari (vokzal ma-qomiga ega bo'lmaganlari)ning peronlari;

– xususiy yer uchastkalarining muhofaza etiladigan hududlari;

– xususiy uy xo'jaliklari hududlari;

– kvartiralar va kommunal kvartiralar;

– yotoqxonalarning xonalari va umumiy joylari;

– umumiy foydalanish uchun jihozlanma-gan chodirlar va podvallar;

– ommaviy yoki boshqa ommaviy tadbir-lar o'tkazilmaydigan davriy foydalanish joy-lari;

– tashrif buyuruvchilar uchun yopiq dam olish joylari, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;

– kirish va tekshirish tartiblari amalga oshiriladigan tashkilot va muassasalarning hovlilari;

– bog’dorchilik shirkatlari va kooperativlari, shuningdek xususiy uy xo’jaliklari (aholi punktlarining xususiy sektorida) hududidan o’tuvchi yo’llar.

O’ylaymizki, jamoat joylarini aniq ro’yxatining keltirilishi huquqni qo’llash amaliyotida qonuniylikni ta’minlashi bilan birgalikda, shaxslarni javobgarlikka tortishda normalarining disreksion qo’llanishi omillariga barham beradi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to’g’risida”gi Qonuni talablariga muvofiqlashtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasida bayon etilgan “shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan” jumlasini olib tashlash ushbu normani yangi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi bezorilik jinoyati va mayda bezorilik huquqbuzarligiga oid tadqiqotlar natijasida quyidagi muammolarni bayon etishimiz mumkin. Jumladan:

birinchi, mayda bezorilikning aynan tarkibi xoh u o’zga shaxsning sha’ni, qadr-qimmati bo’lsin, xoh umuman hech bir shaxsga qaratilmasin basharti jamoat joyida haqoratli, uyatsiz so’zlar bilan so’kinish ushbu huquqbuzarlikning tarkibi keltirib chiqaradi;

ikkinchidan, bezorilik bilan bog’liq barcha huquqbuzarlik turlarida, xususan, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo’luvchi bezorilikning dispozitsion matnlarida quyidagi mavhumliklar va disreksion holatlarga sabab bo’luvchi matnlar mavjud.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasida bayon etilgan “jamoat joylarida”, “shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan” jummalari;

O’zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi birinchi qismida qayd etilgan “jamiyatda yurish-turish qoidalarini” jumlasini;

Mazkur moddaning ikkinchi qismi “g” bandidagi “umume’tirof etgan axloq qoidala-

rini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o’taketgan behayollik” jummalari;

Ushbu normaning uchinchi qismi “g” bandida nazarda tutilgan “qarshilik ko’rsatib” jummalari huquqni qo’llash amaliyotida bugungi kunda turli xilda talqin etilishiga sabab bo’lmoqda.;

uchinchidan, qonunchiligimizda “jamoat joyi” tushunchasining aniq, yagona ta’rifi mavjud emasligi sababli unga quyidagicha huquqiy ta’rif berish, hamda ushbu ta’rifni qonunchilikda qayd etish maqsadga muvofiq.

Xususan, jamoat joyi – to’siqsiz kirish (bo’lish) uchun ochiq bo’lgan, yoxud fuqarolarning turli ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mo’ljallangan joydagi uchastkalar, binolar, xonalar, inshootlar, ularning qismlari, shuningdek, transport kommunikatsiyalari tushuniladi;

to’rtinchidan, jamoat joylarini quyidagicha tasniflash va ularni qonun hujjatlarida qayd qilish lozim. Xususan, doimiy tusdagi, vaqtincha tusdagi va bir martalik tusdagi jamoat joylari qonunchilikda qayd etilishi huquqni qo’llash amaliyotida vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda ahamiyatli hisoblanadi;

beshinchidan, shuningdek, qonun hujjatlarida qaysi joylar jamoat joylari hisoblanmasligini ham aniq bayon etish lozim;

Xulosalar

O’zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to’g’risida”gi Qonuni talablariga muvofiqlashtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi MJtKning 183-moddasida bayon etilgan “shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan” jumlasini olib tashlash va ushbu normani quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq.

183-modda. Mayda bezorilik

Mayda bezorilik, ya’ni jamoat joylarida uyatsiz so’zlar bilan so’kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik

hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osonliklarini buzuvchi xatti-harakatlar sodir etish, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277-moddasida nazarda tutilgan oqibatlariga olib kelmagan bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jama solishga yoki o'n besh sutkagacha mudatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

REFERENCES

1. Djavkashev J.A. Bezorlik jinoyati va uning o'ziga xos xususiyatlari [The crime of bullying and its peculiarities]. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (Carjis)*, 2022, vol. 2, no. 2, pp. 535–541. DOI: 10.24412/2181-2454-2022-2-535-541
2. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi [Criminal Law]. General part. Tashkent, 2006, pp. 154–155.
3. Abdullayev A. Haqorat qilish faqat va faqat to'g'ri qasddan sodir etiladi [Insult is committed only and only correctly intentionally]. Available at: t.me/Advokat_Abdullayev
4. Turemuratov S. Haqorat qilish va so'kinish: nima farqi bor? [Insult and slaughter: what's the difference?]. Available at: <https://hudud24.uz/news/khakorat-kilish-va-sukinish-nima-farki-bor>
5. G'ofurjonov I.M. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning muhim jihatlari [Important aspects of qualifying crimes consisting of domestic (domestic) violence]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2023, pp. 291–297.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory Dictionary of the Uzbek language]. Eds. E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, T. Mirzayev, N. To'xliyev, E. Umarov, D. Xudoyberganova, A. Hojiyev. Tashkent, 2006, p. 547. Available at: <http://n.ziyouz.com>
7. Adilov T.B. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi mayda bezorilik huquqbuzarligining o'ziga xos xususiyatlari [Distinctive features of a minor bullying offense that encroaches on public order]. *Development of pedagogical technologies: Proceedings of the modern sciences International scientific-online conference*. DOI: 10.5281/zenodo.7181036
8. Qadamov J. Toshkentda jurnalistning "mazarini qochirmoqchi bo'lgan" shaxs 5 sutkaga qamaldi [In Tashkent, a person who "tried to escape" the journalist was imprisoned for 5 days]. Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/05/journalist/>
9. Article published on the official website of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://t.me/iivtransport/6833>
10. Official pages of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://t.me/toshkentshaharsudlari/4745>
11. The girl who said that she had a bomb in her bag in the Tashkent Metro was arrested. Available at: <https://kun.uz/news/2022/10/24/toshkent-metrosida-sumkasida-bomba-borligini-aytgan-qiz-hibsga-olindi>
12. Abdullayev S. Jamoat joyining yozilmagan qonunlari [Unwritten laws of public space]. Available at: <https://samarqand.adliya.uz/samarqand/uz/publikatsii/detail.php?ID=10081>
13. Oxunov Z. Jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka oid ayrim mulohazalar [Some considerations regarding liability for offenses committed in public places]. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. Special series: Administrative-legal reforms implemented in the system of internal affairs bodies: results and prospect*. DOI: 10.5281/zenodo.7574906
14. Bredihin I.D. K diskussii o ponjatii i priznakah definicii «Obshhestvennoe mesto» v administrativnom zakonodatel'stve [On the discussion of the concept and features of the definition of "Public place" in administrative legislation]. *Right*, no. 26, pp. 85–89.

15. Sidortsov R.V. Zakonodatel'noye regulirovaniye sub'yektami Rossiyskoy Federatsii otvetstvennosti za administrativnyye pravonarusheniya, posyagayushchiye na obshchestvennyy poryadok [Legislative regulation by the subjects of the Russian Federation of liability for administrative offenses that infringe on public order]. PhD thesis. Moscow, 2020, p. 26.

16. Matthias Buchecker Public Place as a Resource of Social Interaction. 2006. DOI: 10.1007/1-4020-3273-0_7

17. The International Convention for the Suppression of Terrorist Bombings was adopted by General Assembly resolution 52/164 of December 16, 1997. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/bombing.shtml

18. Nabiyeu O. Bezorilik jinoyat tushunchasi [Hooligan crime concept]. Kattakurgan Morning. Available at: <https://kattakurgon-tongi.uz/author/admin/>

19. Zamanov O. Qayer jamoat joyi hisoblanadi [Where is a public place]. Available at: https://www.norma.uz/oz/nhh_loyihalari/qaer_jamoat_joyi_hisoblanadi

20. Xudayberdiyev A.A., Iskandarov Y.B. Jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarliklarining ma'muriy-huquqiy tavsifi [Administrative-legal description of offenses committed in public places]. *Proceedings of the Innovative research in science International scientific-online conference*. Doi: 10.5281/zenodo.743210

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

J. Allayorov

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.